


Iste'mol bozori

Viloyatda savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2018 yil yanvar-mart oylarida 1679,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizga oshgan


Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 1235,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,8 foizni tashkil etdi.

Viloyatda chakana savdo aylanmasi hajmida yirik, kichik korxonalar va jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Namangan shahri (42,1 foiz), Norin tumani (9,6 foiz), Chust tumani (6,6 foiz), To'raqo'rg'on (6,3), , Yangiqo'rg'on tumanlarni (6,1 foiz) ko'rsatkich bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 0,6 mln.so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 0,5 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Norin tumani (1,0 mln. so'm), To'raqo'rg'on tumani (0,5 mln. so'm) Yangiqo'rg'on tumani (0.5 mln. so'm) kuzatildi.

	so'm	2017 yil Yanvar-mart xolatiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	621216	100,1
Namangan sh	1176325	99,4
Mingbuloq	293317	99,2
Kosonsoy	427174	98,4
Namangan	332580	98,4
Norin	1017364	100,2
Pop	414041	104,5
To'raqo'rg'on	489652	89,6
Uychi	405337	98,3
Uchqo'rg'on	469484	99,5
Chortoq	346259	100,0
Chust	435771	112,9
Yangiqo'rg'on	492136	106,2